



2023-yil. 3-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING |

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584

Madina ASHIRBAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti;
Muhabbat YUSUPOVA,
Ingliz tili kafedrası mudiri (PhD), ilmiy rahbar

OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN WEBQUEST VAZIFALARINI 11-SINF O'QUVCHILARIDA QO'LLASH

Bizning asrimizda chet tillarni bilish va o'rganish jahon madaniyati bilan tanishish imkoniyatini beradi, ko'pgina davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantiradi, undan tashqari, Internet-resurslardan mumkin qadar to'liq foydalanishga yordam beradi. Bizning davrimizda Internet-resurslar ham o'qituvchining, ham o'quvchining umumiy axborot madaniyatining bir bo'lagi hisoblanadi. Internet har bir o'quvchining shaxsiy faoliyat doirasini kengaytirib, bir dars mobaynida sifatli materiallar yetkazib berish tezligini oshiradi. Internetni ta'lim jarayoniga integratsiyalash, undan chet tillarni o'qitish jarayonida ta'lim va tarbiya berishda foydalanish dolzarb bo'lib, ko'p maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaxshi yordam beradi.

Shundan kelib chiqib, zamonaviy o'qituvchi texnik vositalarni bilishi va ulardan dars jarayonida foydalana olishi zarur. Hozirgi zamonda o'qituvchi uchun dolzarb bo'lgan texnologiyalardan biri WebQuest ta'lim texnologiyasi bo'lib, mazkur maqolaning asosiy maqsadi ham undan umumta'lim maktablari foydalalangan holda o'quvchilar og'zaki nutqini oshirish va ularga til o'rganishda motivatsiya berishdir. Ushbu texnologiyaning asosiy xususiyatlari shundaki, birinchidan, bu texnologiyadan foydalanish uchun Internet kerak bo'ladi, chunki WebQuestning o'zi va uning vazifalarini bajarish tarmoq resurslarisiz mumkin emas. Ikkinchidan, texnologiya o'quvchilarning zaruriy vazifalarni mustaqil bajarishini talab etadi. Uchinchidan, topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun o'quvchilarning birlashishini taqozo etadi. To'rtinchidan, vazifa qandaydir rol bajarish orqali amalga oshiriladi, ya'ni bunda vazifani bajaruvchiga bir qancha rollar taklif etiladi, masalan, analitik, jurnalistik, skeptik, teoretik va boshqa rollar bo'lishi mumkin, va bu rollar mustaqil ravishda tanlanadi. Rol variantlari va ularning xususiyatlari ushbu texnologiyaning muallifi tomonidan belgilanadi va veb-saytning tegishli sahifasiga joylashtiriladi. Beshinchidan, bu texnologiya blok strukturasiga ega. Ushbu strukturaning elementlari: 1) kirish; 2) vazifa; 3) bajarish jarayoni; 4) resurslar; 5) baholash; 6) xulosa; 7) foydalanilgan adabiyotlar; 8) o'qituvchining sahifasi. Vazifani bajaruvchilar ushbu elementlardan ketma-ketlikda o'tishlari kerak bo'ladi. Har bir elementning mazmuni muallif tomonidan ssenariyni yozish davrida o'ylab chiqiladi. Ssenariyda yuqorida keltirilgan elementlar muallifning maqsadiga qarab o'zgarishi va, zarur bo'lganda, qo'shimcha elementlar qo'shilishi ham mumkin bo'ladi.

WebQuest texnologiyasidan foydalanib Bo'stonlik tumani umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarning ingliz tilidan og'zaki nutqini rivojlantirish va tajriba

sinov ishlarining dars sifatiga bo'lgan ta'siri natijalari kuzatildi. Dissertatsiya ishining oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar (og'zaki nutqni rivojlantirishda nazorat va tajriba guruhlarini o'rtasidagi farqlarni aniqlash va solishtirish; tanlangan umumta'lim maktablari tajriba guruhlarini o'rtasidagi farqlarni aniqlash)ga erishish uchun o'quvchilar faoliyati va yutuqlarini aniqlashda og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan "pre-post" testlar o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari uchun Bo'stonlik tumanidagi 3 ta umumta'lim maktablarining 10–11-sinflari – 1-sinfdan ingliz tili o'rgangan 15–16 yosh oralig'idagi 214 nafar o'quvchi tanlab olinib, tajriba va nazorat guruhlariga bo'lindi va 2022–2023-o'quv yilining birinchi yarmida tajriba olib borildi:

	1-maktab		2-maktab		3-maktab	
	10-sinf	11-sinf	10-sinf	11-sinf	10-sinf	11-sinf
Umumiy ishtirokchilar	41	40	21	19	36	17
Nazorat guruhlarini	18	21	21	19	18	8
Tajriba guruhlarini	23	19	21	19	18	9
Jami	214					

Tajriba-sinov davomida WebQuest vazifalaridan foydalanish uchun o'quvchilardan Internet aloqasi mavjud gadgetlar, kompyuter va Internet aloqasi talab etildi.

Tajriba-sinov uchun ishlab chiqilgan WebQuest vazifasi 11-sinf "Prepare" darsligidagi "Extreme weather" mavzusiga moslashtirilib, "The 3 'R's" deb nomlandi. "The 3 'R's" konsepti Ga'rb davlatlariga xos bo'lib, bunda atrof-muhitni asrash va himoya qilish global muammoning yechimi hisoblanishi bois maktab yoshidan boshlab shu tushuncha singdirib boriladi. Bu tushunchadagi 3 ta "R" "Reduce, Reuse, Recycle"ni bildiradi (Reduce – iste'molda foydalanilayotgan mahsulotlarni kamaytirish va isrof qilmaslik; Reuse – ishlatilgan mahsulot va materiallarni tashlab yubormasdan qayta foydalanish; Recycle – mahsulotlarni qayta ishlab chiqib foydalanish uchun yangi mahsulotga aylantirish).

WebQuest vazifasiga kelsak, u odatiy WebQuest strukturasi boshqacha tuzilib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: *Introduction; Karaoke time; Task; Process; Roles; Resources; Questions; Practice; Project work; Evaluation; Conclusion.*

11-sinf uchun WebQuest vazifasi 10-sinf WebQuest vazifasi singari BookWidgets.com platformasida yaratil-

di. Tajriba-sinov uchun Bo'stonliq tumanidagi umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari (47) tanlandi. Har bir maktabda 1 ta nazorat va 1 ta tajriba-sinov guruhlarini tayinlandi. Ular uchun ishlab chiqilgan tajriba-sinov WebQuest vazifasi hozirgi dunyo muammolaridan biri – yer yuzi va atrof-muhitning ifloslanishi va bu muammoning yechimlariga bag'ishlanib, o'quvchilarning yoshlikdan atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish maqsad qilindi. Atrof-muhit ifloslanishi muammosining asosiy yechimlaridan biri 3 ta "R" (Reduce/Reuse/Recycle) bo'lib, unga bag'ishlangan WebQuest ham "The 3 'R's" deb nomlandi va 5 ta darsga rejalashtirilib amalga oshirildi. Bu o'qituvchi va ota-onalar bolalarga 3 "R" oltin qoidasi, ya'ni Reduce/Reuse/Recycle ni amaliyot va kundalik hayotda qo'llash javobgarligini singdirishda juda muhimdir. Iste'mol qilinayotgan mahsulotlar va materiallardan unumli foydalanib borish ona zaminimizning hech bo'lmaganda yuzasini asrashda ulkan hissa qo'shishi nuqtayi nazaridan ushbu oltin qoidaning sekin-asta o'quvchilar o'ngiga singdirib borilishi maqsadga muvofiq.

Boshida ushbu qoidalarga amal qilish birmuncha qiyin bo'lishi mumkin, lekin o'qituvchi va ota-onalarning yordami bilan WebQuestdagi video va mashqlarni bajarish o'quvchilarga ushbu qoidani tushunish va amalda qo'llashda yordam bo'ladi. Bu oddiy vazifalarning kundalik vazifalar qatoridan joy olishi atrof-muhit muhofazasi uchun qo'yilgan ulkan qadamdir.

"The 3 'R's" WebQuest vazifasi maktablarda haftasiga 1 marta o'tkazildi va kuzatildi. WebQuest texnologiyasi yordamida darslarga Internet-texnologiyalar va gadjetlardan foydalanishlar kiritildi, natijada, o'quvchilar ingliz tilini o'rganishda motivatsiya olib, Internet maydonida ishlash, katta hajmdagi ma'lumotlar ichidan o'zlariga zarurlarini aniqlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini oshirishdi; atrof-muhit muammolari bilan tanishib, o'z fikrlarini bildirishdi.

WebQuest vazifasi natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi navbatda, o'quvchilar bilimi oldindan tekshirib ko'rildi, natijalari WebQuestdan keyingi natija bilan solishtirildi.

WebQuest vazifalarining o'quvchilar tomonidan qanchalik bajarilganligi aniq mezonlar asosida baholandi: 3 ball – a'lo; 2 ball – yaxshi; 1 ball – qoniqarli deb belgilandi.

3 ball – WebQuest vazifasining barcha bosqichlari

da faol qatnashib, o'z og'zaki nutqlarini yaxshi ko'rsatgan o'quvchilarga;

2 ball – WebQuest vazifalarida qatnasha olgan va berilgan vazifalar bo'yicha ozgina gapirgan o'quvchilarga;

1 ball – WebQuest vazifalarida to'liq qatnasha olmagan, yoki to'liq og'zaki nutq bo'yicha vazifalarni bajara olmagan o'quvchilarga berildi.

WebQuest texnologiyasi yordamida o'quvchilar og'zaki nutqini rivojlantirishning samaradorlik darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha o'zlashtirishlari Pearson x-kvadrat matematik-statistik tahlil metodi ko'magida solishtirildi.

Ingliz tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarining og'zaki nutq ko'nikmasini WebQuest texnologiyasidan foydalanib rivojlantirish yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari bo'yicha quyidagicha xulosaga kelindi:

1. Ingliz tili darslari jarayonida og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan WebQuest texnologiyasi asosida vazifalar tayyorlandi, tanlangan mavzular o'quvchilarning qiziqishi va dunyo miqyosida muammo bo'lib kelayotgan jihatlariga qaratildi. Vazifalarning asosiy maqsadi yuqori sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiya va kreativlikni oshirishdan iborat bo'ldi.

2. Tajriba-sinov ishlarini olib borishdan oldin o'quvchilarning ingliz tili darajalari aniqlandi, buning uchun ular bilan test va suhbat (savollarga javob berish) olib borildi va natijalar tahlil qilindi.

3. Tajriba-sinov jarayonida o'quvchilarda WebQuest vazifalari uchun tayyor Internet-resurslardan to'g'ri foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlar ichidan zarur bo'lganlarini aniqlab foydalanish kabi ko'nikmalar rivojlantirildi. Buning uchun ulardan tahlil qilish va tanqidiy fikrlash talab etildi.

4. Dars jarayonlarida WebQuest texnologiyasi, zamonaviy texnologiyalar va Internet-resurslardan foydalanib nafaqat ingliz tili, balki boshqa fanlardan ham darslar tashkillashtirilsa, o'quvchilarning o'zlashtirishi bir muncha samarali bo'ladi. O'z navbatida, o'quvchilarda motivatsiya va qiziqish oshadi. WebQuest texnologiyasiga asoslanib ishlab chiqilgan vazifalar moslashuvchan bo'lib, ta'lim jarayonining istalgan qismida qo'shib olib borilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirbaeva M.N., Yusupova M.A. The effects of applying WebQuest tasks on the development of speaking skills in 10th grade students // So'z san'ati xalqaro jurnali, 1-maxsus son, 7 (2022), pp. 43-47.
2. Ashirbaeva M.N. WebQuest technology in teaching speaking skills // Innovative Developments and Research in Education, 2022, Part 2, pp 296-299.
3. Ashirbaeva M.N., Yusupova M.A. Using WebQuest in teaching foreign languages as an Internet-based technology // Academic Research in Educational Sciences, 2020, Vol. 3, Iss. 5, pp. 530-535.
4. Dance F.E. & Larson C.E. The functions of human communication: A theoretical approach. – New York: Holt, Reinhart and Winston, 1976.
5. Dodge B. Webquests: A technique for Internet-based learning // Distance Educator 30, 1995. No. 1(2), pp. 10-13.
6. Dodge B. Some thoughts about WebQuests. 1995-1997 // <http://webquest.sdsu.edu/about/webquest.html>
7. Dodge B. WebQuest taskonomy: A taxonomy of tasks. 1999 // <http://webquest.sdsu.edu/taskonomy.html>
8. Dodge B. A rubric for evaluating WebQuests. 2001 // <http://webquest.sdsu.edu/webquestrubric.html>
9. Dodge B. Creating a rubric for a given task. 2001 // <http://project.edtech.sandi.net/staffdev/tpss99/rubrics/rubrics.html>
10. Yusupova M.A. Successful way of being a skilled English teacher // Science and Education, 2020, 1 (Special Issue 2), 198-203.